

JINOYAT PROTSESSIDA TARJIMONNI ISHTIROK ETISHINI RAD QILISH ASOSLARI.

Durdubaeva Nargiza Muratbaevna

*“TIQXMMI” MTU Huquqiy fanlar kafedrasi
o’qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimonning jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va ushbu holatlar mavjud bo’lganda protsessda ishtirok etishni rad etish asoslarini ko’rib chiqadi. Shuningdek tarjimonning xolisligi masalasi, shaxsiy manfaatdorlik tushunchasi va turlari, qarindoshlik masalasi va shu mavzuda chet tajribasi o’rganiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyat protsessi, rad etish, monelik qiluvchi holatlar, tarjimon mutaxasis, sudya, proruror, tergovchi, guvohlar, ayblanuvchilar, shaxsiy manfaatdorlik, qarindoshlik.

Аннотация. В статье рассматриваются обстоятельства, препятствующие участию переводчика и представителей в уголовном судопроизводстве, и основания отказа от участия в судопроизводстве при наличии этих обстоятельств. Анализируется круг основных фигурантов этих дел, их процессуальный статус, право на отказ по делу, основания отказа, зарубежный опыт в этом направлении.

Ключевые слова: уголовный процесс, переводчик, отвод в суде, судья, следователи, свидетели, обвиняемые, родственники.

Annotation. This article considers the circumstances that prevent participation in the criminal proceedings and the grounds for refusal to participate in the proceedings in the presence of these circumstances. It analyzes the scope of the main persons involved in these cases, their procedural status, the right to refuse in the case, grounds for refusal, and foreign experience in this direction.

Keywords: Criminal proceeding, denial, impeding circumstances, interpreter, judge, investigative, witness, defendants, relationship.

Rad qilish instituti jinoyat ishini ko'rib chiqish jarayonida sudgacha bo'lgan va sud prosessi bosqichida sudya va prosessning boshqa ishtirokchilarini rad qilishni anglatadi. Jinoyat prosessida rad qilish institutining maqsadi jinoyat prosessining ishtirokchilari, shuningdek sud majlisi zalidagi hozir bo'lgan fuqarolar tomonidan ishning to'g'ri, adolatli, qonuniy ko'rib chiqilishi va hal qilinishiga erishilishdir.

O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli davlat va tabiiyki yuz berayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar ham har xil millat vakillari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Milliy qonunchiligimizda sud ishlarini yuritish milliy tilda yoki usha sud o'tkaziladigan hudud uchun tushunarli bolgan tilda olib borilishi, shuningdek tergov yoki sud protsessi ishtirokchisining oz ona tilida ko'rsatma yoki tushuntirishlar berish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Aynan shu ishtirokchining oz ona tilida bergan ko'rsatma yoki tushuntirishlarini protsessning boshqa ishtirokchilariga aniq va tushunarli tilda etkazuvchi yagona shaxs esa tarjimon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual kodeksining 76,78-moddalarida "ekspert mutaxassis va tarjimonni rad qilish asoslari mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, JPK 76-moddalarida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek ishda ishtirok etayotgan shaxslardan birortasiga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobe bolsa, o'z kasbiga noloyiqligi ayon bolib qolsa, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishi mumkin bo'lmaydi va u rad qilinadi. Ushbu asoslar orasida tarjimonning oz kasbiga noloyiqligi sababli rad qilish masalasiga alohida to'qtalib o'tamiz.

Jinoyat prosessida tarjimon protsessning kasbiga loyiqligi talab qilinadigan ishtirokchilari guruhiga kiradi. Shaxs jinoyat protsessida ishni korib chiqishda tarjimon sifatida jalb qilinganda, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan uning shaxsi, kasbiga loyiqligi, uning rad etilishiga sabab bo'ladigan holatlar aniqlanadi. Bunday qilinishidan maqsad shu'ki, takroran surishtiruv, tergov yoki sud jarayoni o'tkazilishini oldini olish, shuningdek tarjimon tomonidan xato tarjima qilinishiga, dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilinishiga yol qo'ymaslik va protsessning boshqa ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish hisoblanadi.

Shu o'rinda kasbiga nолоyіqlіk tushunchasiga to'qталib o'tsak, kasbiga nолоyіqlіk bu o'z kasbi yuzasidan talab qilinadigan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligidir. Tarjimonning kasbiga loyіqlіgini aniqlashda uning matn bilan ishlash mahorati, yani matnni oziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tarjimo qilish qobiliyati tekshiriladi. Bunda matnni aniq, lo'nda va etarlicha tez tarjima qilinishi talab qilinadi. Tarjimon nafaqat oddiy, og'zaki tilni, balki matnlarni ularning maxsus terminologiyasini hisobga olgan holda bilishi va tarjima qila olishi kerak. Buning uchun tarjimon etarlicha so'z boyligiga ega bolishi kerak. Jinoyat protsessida har xil sohaga oid terminlar uchrashi mumkin, lekin tarjimon hamma sohani terminlarini ham bilavermasligi mumkin. Ushbu holatda tarjimondan talab qilinadigan harakat, o'zi tarjima qiladigan tilga tarjimani yaxshi bilsalar tarjima uchun zarur bolgan tushunchalarni aniqlay oladi va matnni toliq tarjima qila oladi.

B.N.Maxovanning fikricha tarjimonning kasbiga nолоyіqlіgi faqat uning protsessning boshqa ishtirokchilari biladigan tilni bilmasligi yoki etarli bilmasligida emas, balki yuridik, va zarur bolganda boshqa terminlarni shuningdek tarjima metodlarini ham bilmasligidadir. Yana bir olim P.E.Kondratov tarjimonning kasbiga nолоyіqlіgini uning tarjima qilinayotgan malumotning mazmunini aniq tez tarjima qila olmasligi, uning so'z boyligi cheklanganligi va umumiy savodxonligi pastligi, yozma tarjima konikmalariga ega emasligida deya aniqlama beradi.

Shuni takidlab o'tish joiz, tarjimonni ishga jalb qilgan mansabdor shaxs surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning o'zi faqat o'z ona tilini biladigan, lekin tarjimondan talab qilinayotgan tilni yaxshi bilmasa, u qanday qilib tarjimonning kasbiga loyіqlіgini tekshirishi mumkin. Ushbu holatda unga taqdim qilingan hujjatlarda, masalan tarjimonning diplomida va ish joyidan xarakteristikasida uning usha tilni yaxshi bilishi ko'rsatilgan boladi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tarjimonning kasbiga loyіqlіgining tekshirilishi tarjimaning toliq va sifatli qilinishini kafolatlay olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi JPK 78-moddasida ekspert mutaxassis tarjimon va xolisni ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarga ushbu kodeksni 76-moddasida belgilangan holatlar mavjud bolganda, ekspert mutaxassis tarjimon va xolisni jinoyat ishini yuritishda

ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan. Ya'ni Jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq tarjimon quyidagi holatlarda rad qilinishi mumkin:

1. Ish natijasidan manfaatdor bo'lsa, agar tarjimon ishning hal qilinishida bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa, u xolis tarjima qila olmaydi. Masalan: ayblanuvchining qarindoshi bo'lsa; jabrlanuvchi bilan yaqin munosabatda bo'lsa; ish natijasidan moddiy manfaatdorligi bolsa.

2. Ish ishtirokchilari bilan qarindoshlik yoki yaqin aloqada bo'lsa;

3. Ilgari ishda boshqa protsessual maqomda ishtirok etgan bo'lsa, agar tarjimon mazkur ish bo'yicha: guvoh; ekspert; mutaxassis; himoyachi; kotib sifatida qatnashgan bo'lsa, keyinchalik tarjimon sifatida ishtirok eta olmaydi.

Tarjimonni rad qilishning yana bir asosi bu – uning xolisligiga shubha tug'diradigan boshqa da holatlarning mavjudligi hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizda jinoyat ishini ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi shaxslarning xolisligiga shubha tug'diradigan holatlar deganda aynan qaysi holatlar ekanligi to'liq ko'rsatilmagan.. Tarjimonning xolisligiga shubha tug'diradigan holatlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: a) ishda ishtirok etayotgan shaxslar yoki ularning vakillariga xizmat yuzasidan to'beligi, yoki muqaddam bo'ysunganligi va bu holatni tasdiqlovchi faktlarning mavjudligi b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoxud ularning vakillari bilan do'stona munosabatda ekanligi yoki ular o'rtasida shaxsiy adovatning mavjudligi.

Xulosa

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmagan yoki yetarli darajada tushunmagan hollardagina tarjimon ishtirok etishi ta'minlanadi. Tarjimon protsess ishtirokchilarning til bilan bog'liq huquqlarini ta'minlaydigan muhim ishtirokchidir. Tarjimon protsess ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirishga yordam beradi, ko'rsatmalar, hujjatlar va sud muhokamasini to'g'ri tarjima qiladi. Shu sababli tarjimonning xolisligi, mustaqilligi va malakasi katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси.. Тошкент -2022, “Адолат” нашриёти.
2. Х.А.Мамедова “Обстоятельство исключают участие судьи в уголовном судопроизводстве ” Москва 1986. diss.rsl.ru
3. И.И.Бунова «Участие переводчика в уголовном судопроизводстве» Москва 2013. diss.rsl.ru
4. Ф.Н.Багаутдинов. Актуальные проблемы отвода судьи в современных условиях. Журнал Российского права №5, 2009.
5. Гаспарян.Н.С. “Отвод в судопроизводстве” 2012. Vol.1.Stavropol.
6. Р.И.Бибкаева “Обстоятельство исключают участие судьи в уголовном судопроизводстве участников не обладающих властными полномочиями , а также порядок заявления и разрешения их отводов и самоотводов”
“Наука и просвещение”. www.NAUKAIP.RU
7. А.П.Рыжаков «Эксперт в уголовном процессе»